



MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI
(2024-YIL, 15-IYUN)**

MATERIALLARI

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
ONLINE CONFERENCE
(JUNE 15, 2024 Y)**

MATERIALS



2. Бизгача турли синовлардан ўтиб келган қадимий тарихимиз ва бой маданиятимиз, улуғ аجدодларимиз тарихини чуқурроқ ўзлаштириш;
3. Глобаллашув даврида тез ўзгараётган дунё манзарасини қалб кўзи, юрак амри билан баҳолаш;
4. Гўзал юртимизда кечаётган ўзгаришларнинг оддий кузатувчиси эмас, балки фаол иштирокчиси сифатида фаолият олиб бориш.

Фойданалинган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т, ; “O‘zbekiston”, - 2023.
2. Ш.Мирзиёев. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан хизмат қилайлик. “Халқ сўзи”, 2017 йил 16 июнь.
3. И. Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т, «Маънавият» нашриёти, 2008.
4. Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. ”Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
5. И.Саифназаров, Ф.Саифназарова. Ёшлар ва оила – Ватан таянчи. Т, 2018.
6. П.Сорокин. Человек. Цивилизация. Общество. – М.; “Политиздат”, 1992.

TALABALARNING AXLOQIY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Ismailova Dilbar Ruzmatovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati, o‘rni, ma’naviy, madaniy, axloqiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan yetuk mustaqil fikrlovchi barkamol avlod qilib voyaga yetkazish nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, ma’naviy-axloqiy, madaniyat, talaba, tarbiya, axloq, milliy ong, milliy g‘urur, milliy iftixor

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi. Xususan, mustaqilligimizning birinchi kunidan boshlab, hayotimizning barcha jabhalarida «qadriyatlar», «milliy tiklanish», «milliy ong», «milliy g‘urur», «milliy iftixor» kabi atamalar tez-tez ishlatiladigan bo‘lib qoldi.

Har bir davr shaxsni o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy va madaniy manfaatlaridan kelib chiqib, muayyan bilimlar, tamoyil va xulq-atvor qoidalari asosida tarbiyalaydi. Bu narsa milliy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston uchun o‘ta muhim. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganidek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi

uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy- ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qullaniladigan falsafiy – sotsiologik va akseologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchliktinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida- yodgorlik, go‘zallik axloqiy xislat hamda fazilatlar, an’ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblandi. Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy milliy, mintaqaviy shaxsiy bo‘lishi mumkin. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot maxsuli sifatida, o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo‘lib, avvalo ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyat insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati xatti-harakatini ma’lum yo‘nalishga buradigan, tegishli me’yorga soladigan ma’naviy hodisaga aylanadi va aylanmoqda [2].

Qadriyat- inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne‘matlarini, hodisalarini majmuini tushunmog‘imiz lozim. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy – ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

O‘zbek milliy qadriyatlarining millat hayotida namoyon bo‘lishi - millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat; - kattaga - hurmat, kichikka - izzat; - mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom; - sabr-bardosh va mehnatsevarlik;

- halollik, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik va hokazo - xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi; - jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi; - ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;

Talabalarga oilada, ta’lim muassasalarida milliy ma’naviy meros, qadriyatlar tarkibi, tarixiy meros va tarixiy xotira; madaniy yodgorliklar, qadimiy qo‘lyozmalar; ilmu-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari; san’at va milliy adabiyot asarlari; axloqiy fazilatlar; diniy qadriyatlar; urf-odat, an’ana va marosimlar; ma’rifat, ta’lim-tarbiya haqida ma’lumot berib borish kerak [3].

«Axloq» tushunchasi oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko‘lamda ishlatib kelingan. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko‘rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari doirasida yuz

beradi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi [5]. Bir so'z bilan aytganda axloq-jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuidir. Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat va ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Keyingi yillarda yaratilgan ilmiy adabiyotlar, chop etilgan ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda «axloq» tushunchasi qo'llash va unga daxldor mavzularni ta'riflashda «axloq» tushunchasi mustaqil tushuncha sifatida qo'llanilsa, ayrimlarida bevosita «ma'naviy-axloq», «axloqiy kamolot» kabi sinonim yoki muqobil so'zlar tarzida ham qo'llanmoqda. Zero, axloqsiz, axloqiy talablar hamda ularda ifoda etilgan g'oyalarsiz shaxsning ruhan va jismonan yetukliginiig mushtarakligi, uyg'unligi bo'lgan ma'naviy komillik shakllanmaydi. Ma'naviyat, - akademik E.Yu.Yusupov nuqtai nazarida-inson axloq odobi, vijdoni-iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy o'zgarishlarining bari, bir-biri bilan uzviy bog'langan jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir. Bizning nazarimizda, shaxs ma'naviyati - uning ongida kehadigan ijobiy mazmunga ega o'y-fikrlar, niyatlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar mazmunining amaliy faoliyatdagi tatbiqida namoyon bo'luvchi ruhiy jarayondir.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalar hamda ma'naviy-axloqiy mavzularga bag'ishlab “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi!”, “Ona – ulug' zot!”, “Biz OITSGa qarshimiz!”, “Navro'z – yasharish bayrami!”, “Xotira muqaddas!”, “Mehnati elda aziz ustozim!” mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tarbiyaviy tadbirlarda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'zlari ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish bilan o'zlariga to'g'ri xulosa chiqarib, ularning ma'naviyati yuksaltirildi.

Talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar, uchrashuvlar va bahs-munozaralar, tanlovlar vatarbiyaviy tadbirlar uyushtirish orqali ularda ijobiy ma'naviy-axloqiy munosabatlar rivojlantirilganligi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar yuksaltirilganligini olib borilgan so'rovnomalar asosida aniqlanib, qayd etib borildi. Olib borilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya natijasida talabalarda quyidagi bir qancha ijobiy fazilatlar rivojlantiriladi: insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, adolatlilik, halollik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik, bosiqlik, kamsuqumlik, shirinsuhanlik va boshqalar.

Talabalarda axloqiy ong, axloqiy talablarni, me'yorlarni, qoidalarni, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kerak. Har qanday xatti-harakatlari ong orqali bajariladi, ammo jamiyat ularni saralab, manfaatdor bo'lganlarinigina yuzaga chiqaradi. Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundadir. Axloqiy ongda voqelik qonunlar sifatida emas, balki insoniy xatti- harakatlarga qo'yilgan ijtimoiy tartib, talablar, me'yorlar shaklida qayd etiladi. Axloqiy ong ijtimoiy va individual ongga bo'linadi. Shu sababli axloqiy

ong, bir tomondan, jamiyat yoki guruhning talablari normativlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, shu talablarni anglashning individual, shaxsiy shakli va ularni amalda namoyon qilishdir.

XULOSA VA MUNOZARA

Axloqiy talablarning haqqoniyligini anglashgina emas, balki u yoki bu axloqiy dasturlarga rioya qilish uchun to‘la tayyorlikni bildiradi. Shuning uchun, axloqiy ishonch shaxsning faoliyat yo‘nalishini, uning maqsadga intilishi, xulqning yashirin motivlari tuzilmasini hamda uning umumiy nuqtai nazarini, hayotdagi o‘rinini, yashash ma‘nosini belgilaydi. Axloqiy ishonch o‘zida ratsional va emotsional tomonlarni ifodalab, turg‘unlik beradi, shaxsning axloqan «zanglamasligiga» kafolat yaratadi, kishi har qanday qiyin sharoitlarda ham o‘z tamoyillaridan qaytmasligini anglatadi. Axloqiy sifatlar haqidagi tushunchalar boshqa jamiyat hodisalari kabi tarix davomida o‘zgarib, rivojlanib, sayqallanib boradi. Masalan, ijtimoiy hayotning hamma sohalariga din, cherkov hukmronlik qilgan o‘rta asrlarda – e‘tiqod, umid va muhabbat, ya‘ni xudoga e‘tiqod, uning shafqatiga umid va unga muhabbat asosiy fazilatlar, deb hisoblangan. Hozir ona-yurtimiz mustaqillik va demokratik yo‘ldan borib, bozor iqtisodiy sharoitida haèt kechirar ekan, ayniqsa, vatanparvarlik, milliy g‘urur fazilatlarini tadbirkorlik, o‘zaro manfaatdorlik, hamkorlik, sabr-toqat, osoyishtalik, qanoatlilik fazilatlarini bilan uyg‘unlashtirib borishni taqozo etmoqda. Murakkab iqtisodiy sharoit chigalliklarini yechishda axloqiy barkamollik, milliy urf-odatlarimizdan ma‘naviy yuksaklik, madaniy-ma‘rifiy merosimiz ta‘sir etmasdan qolmaydi, albatta.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Pidkasisty, P.I. Pedagogika: darslik. Pedagogika universitetlari va pedagogika kollejlari talabalari uchun qo‘llanma / P.I. Fagot // . - M: Rossiya Pedagogika Jamiyati, 2018 yil.
2. Raxmonova G. talabalarda ma‘naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish //Materiali konferensiy MSND. – 2021.
3. Safonova V.V. Ijtimoiy-madaniy yondashuv: asosiy ijtimoiy-pedagogik va uslubiy qoidalar / V.V. Safonova // Maktabda chet tillari. – 2014. – 11-son.
4. Nigmatova M. M. Kompetentli shaxsni shakllantirish yo‘llari //BBK 71.0 I74 Tahririyat Mas‘ul muharrir. – 2019. – B. 191.
5. Solovyova N. I. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirishda mintaqaviy bilimlarning roli. 2015 yil